

VIII. Fors – major

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyalar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch (fors major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mukur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar. Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek, ushbu holatlar yuzaga keltrgan vaqga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Fors-major holati mavjud bo'lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major xolati boshlangan muddatlarni ko'rsatgan holda yozma ravishda ogohlantirishi lozim.

8.3. Agar fors-major holatining shartnoma shartlarini bajarishga uch oydan ko'p muddat to'sqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

IX. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1 Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikki tarafda bir nusxadan saqlanadi.

9.2 Shartnoma g'aznachilik bo'yimlarida ro'yxatga olingan kundun boshlab kuchga kiradi va 24.01.2022 yildan, 31.12.2022 yilgacha amal qiladi.

X. Taraffarning yuridik manzili:

«TAMINOTCH»

«Farg'ona suv ta'minoti» M.Ch.J
 Marg'ilon shaxar bo'limi
 Manzili: Marg'ilon shaxar A.Rizayev ko'ghasi 1-uy.
 Tel: 73 253-38-83 73 253-22-05
 Hisob raqam: 22 638 000 700 194 935 449
 STIR: 200 144 908 Bank kodi: 00544
 Bank nomi Ipojeka bank Farg'ona viloyati filiali:
 OKONH: 90213 NDS: 330050009152

RAHBAR N.N.Abdurahmonov



«ISTE'MOLCH»

«Истеъмолчи» шўъра оғова ва оғова суви хизматларини
 тўловчи бўлиб қўйилган.
 Manzili: ИХТУТ МАРКАЗИ БАНК ТОШКЕНТ
 Tel: 90014 0014
 G'azh-1: РЕБЕВСНИКАР МОМБАДАВИРА
 Bank nomi: ФАЗИЛ
 Bank kodi: 330050009152
 XHTUT: 90014 0014

RAHBAR M.M.



Yuridik xulosa:

Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fugarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shartnomaviy huquqiy asosi to'g'risida"gi Qonun talablariga muvofiq tuzilgan.

Huquqshunos: M.M. «05» 01 2022 yil

Tarif: 1 m³ ichimlik suv uchun narx 1300 so'm

(+15% QQS) 195 so'm,

(+144-qaror Maxsus ustama haqi) 50 so'm

JAMI: 1545 so'm

Tarif: 1 m³ oqova suv uchun narx 365 so'm

(+15% QQS) 54 so'm 75 tiyin,

(+144-qaror Maxsus ustama haqi) 50 so'm

JAMI: 469 so'm 75 tiyin

«Iste'molchi» larga ichimlik va oqova suvi xizmatlarini ko'rsatish uchun

«14» oktyabr 2022 yil

Marg'ilon shaxar

Ushbu shartnoma «Farg'ona suv ta'minoti» M.Ch.J Marg'ilon shaxar bo'limi, keyingi o'rinlarda «Ta'minotchi» deb yuritiladi. Nizom asosida faoliyat yurituvchi ABDURAHMONOV NIZOMIDDIN NE'MAT O'G'LI shaxsida, bir tomondan va keyingi o'rinlarda «Iste'molchi» deb yurituvchi BITS markab, shu omam bo'lab yig'ibayabpa urunmooe P.M. asosida ish olib boruvchi direktor Shaydov Karimkhalilov ikkinchi tomondan, quyidagilar haqida tuzildi:

I.Shartnoma predmeti

1.1. 2022 yil uchun suv yetkazish hajmi uchun tuzilgan shartnomaga muvofiq yuridik tashkilotlari (bundan buyon matnida II guruh «Iste'molchi»lari deb yuritiladi) uchun suv yetkazish 1545 narx bo'yicha 30 m³ ni:

1 m³ ichimlik suv uchun narxi 1300 so'm, (+QQS 15%) 195 so'm, (+144-qaror Maxsus ustama haqi) 50 so'm Jami 1545 so'mni;

1 m³ oqova suv uchun 365 so'm, (+QQS 15%) 54 so'm, (+144-qaror Maxsus ustama haqi) 50 so'm Jami 469 so'm tiyini tashkili qilmogda.

Shu tariqa shartnomaning umumiy qiymati 46350 so'm ni tashkili qildi (46350 so'mni qabul qilib olish majburiyatini o'z zimmasiga oladi).

Shu jumladan, budget mablag'laridan 46350 so'm ni tashkili qildi (46350 so'mni qabul qilib olish majburiyatini o'z zimmasiga oladi).

II-guruh iste'molchilari Qoidalarda belgilangan tarzda "Ta'minotchi" tomondan taqdim qilingan hisobvraq-fakturalarga asosan, Moliya vazirligi G'aznachiligi orqali suv ta'minoti va oqova suvini chiqarish uchun o'tkazilgan mablag'lar orqali amalga oshiriladi.

1.2. «Ta'minotchi» «Iste'molchi»ni sifatli ichimlik suv bilan ta'minlash va «Iste'molchi»dan oqova suvlarni qabul qilib olish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.3. «Iste'molchi» «Ta'minotchi»ga ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun to'lovlarni xar oyrining 10 sanasigacha 100 foizlik oldindan haq to'lash tartibida amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.4. Taraffar ushbu shartnomaning ichimlik va oqova suv xizmatlari bo'yicha shartlarini bajarish, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyulda 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvini chiqarish xizmatlari ko'rsatish Qoidalariga" (Keyinchalik matnda – Qoidalar deb yuritiladi), hamda mahalliy hokimiyat tomondan tasdiqlanadigan maxsus ustama haqi 1m³ ichimlik suv uchun 50 so'm, 1m³ oqova suv xizmati uchun 50 so'm bilan birga

«Ta'minotchi» tomonidan taqdim qilingan ichimlik va oqova suv tizimiga ulanish uchun ruxsat etuvchi hujjatlarga rioya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.

II. Umumiy qoidalar

2.1. «Iste'molchi» «Ta'minotchi» tashkiloti ruxsati bilan va u texnik imkoniyatlarni mavjud deb topgan holatlarda, o'z tasarrufidagi ichimlik va oqova suv tarmoqlariga, inshoot va qurilmalarga subiste'molchilarning ulanishiga ruxsat berish huquqiga ega.

2.2. «Iste'molchi» bilan subiste'molchi o'rtasida to'lov masalalarida paydo bo'ladigan nizolar «Ta'minotchi» tashkiloti tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

2.3. Agar «Iste'molchi» va unga ulangan subiste'molchi turli guruh va toifali iste'molchilariga mansub bo'lsa, «Ta'minotchi» tashkiloti bilan shartnomani «Iste'molchi» ham, subiste'molchi ham tuzadi va suvni hisobga olish priborini o'rnatish har ikkalasi uchun ham majburiy hisoblanadi.

2.4. Ichimlik suvdan dov-daraxtlarni sug'orish uchun foydalanilishiga quyidagi istisno holatlarda yo'l qo'yiladi: irrigatsiya suvi bo'lmagan, ta'minotchi tashkiloti quvvati mavjud bo'lganda va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlangan jadval bo'yicha, faqat tungi vaqtda (soat 00–00 dan soat 05–00 gacha) yo'l qo'yiladi.

2.5. Ichimlik va oqova suv xizmatidan iste'molchi xo'jalik-iste'mol, maishiy chiyovj va yong'inlarni o'chirish xamda texnologik va ishlab chiqarish jarayonlari uchun foydalaniladi.

2.6. Suvni hisobga olish priborlari O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan tekshirilib plombalanadi, hamda «Ta'minotchi» tomonidan plombalanishi lozim. Shuningdek, ichimlik suvini xisobga olish priborini yechish, qiyoslashdan o'tkazish va o'rnatish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

2.7. «Iste'molchi»ga o'rnatilishi lozim bo'lgan suv o'lchash priborining shartli o'tkazgichining diametri (kalibri) hisob-kitob asosida aniqlanadi, ob'ektning maksimal suv iste'moli va minimal suv iste'moliga tekshiriladi hamda «Iste'molchi» bilan kelishiladi. Hisoblash pribori uchun o'rnatilgan minimal iste'mol miqdoridan kam miqdorda suv iste'mol qilinganda, «Ta'minotchi» xodimi suv o'lchash tarmog'ini qaytadan qurilma bilan ta'minlash uchun ko'rsatma beradi, ushbu ko'rsatma bajarilmaganda, hisoblash priborining ko'rsatkichlari qabul qilinmaydi va hisoblash Qoidalarida o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

2.8. Ichimlik va oqova suv xizmatlari xo'jaligining rekonstruksiyasi, hisoblash priborlarini ishga tushirish, hisoblash priborlarini almashirish, yangi subiste'molchilarning ulanishi «Iste'molchi» tomonidan faqat «Ta'minotchi» tarafidan tasdiqlangan texnik shartlar va loyiha asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lib, ular «Iste'molchi»ning so'rovnomasi asosida, barcha tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda beriladi. «Ta'minotchi»dan olingan texnik shartlar asosida, «Iste'molchi» buyurtmasiga asosan, amaldagi me'yor, qoidalar va boshqa me'yorij hujjatlar asosida ishlab chiqiladi.

2.9. Qurilgan ulamalarning ishga tushirilishi «Ta'minotchi» tomonidan, «Iste'molchi» va qurilish tashkilot vakillarining ishtirokida amalga oshiriladi.

2.10. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun tariflar va ustama haq miqdori o'zgarigan sanasidan qat'i nazar, ushbu xizmatlar yuzasidan «Iste'molchi» bilan tuzilgan shartnoma o'z kuchini saqlab qoladi va «Iste'molchi» ko'rsatilgan xizmatlar uchun, yangi tariflar asosida, ular kiritilgan sanadan e'tiboran to'lovlarini amalga oshirishi shart.

2.11. Quyidagilar «Ta'minotchi» tashkilotlari bilan «Iste'molchi»lar shu jumladan, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari o'rtasidagi, ichimlik va oqova suv xizmatlari tarmoqlari, inshootlari xamda qurilmalarga xizmat ko'rsatish, ularning texnik holatini saqlash va foydalanish yuzasidan javobgarlik chegaralari hisoblanadi:

a) ichimlik suv iste'moli uchun — tarmoqqa ulanishini uzib qo'yuvchi kirish qulfi. Kirish qulfi bilan ichimlik suvga ulanish, «Iste'molchi»ning ichki ichimlik suvi tizimining bir qismi hisoblanadi;

- o'zboshimchalik bilan ulanib olingan sanadan bu haqda ma'lum bo'lgan sanagacha, agar «Ta'minotchi» balansdagi tarmoqlarga ulanish sodir etilgan bo'lsa, bu muddat da'vo arizasi yozilgan muddatdan oshmasligi zarur. Agar o'zboshimchalik bilan ulangan sanani topish, aniqlash mumkin bo'lmasa, bu muddat da'vo muddatiga teng deb olinadi.

6.4. Texnik shartlar 2 yil muddatga beriladi. Belgilangan muddat tugagach buyurtmachi (obektni loyixalashirish va qurishni boshlash uchun) loyiha muddatini cho'zdirishi yoki yangi texnik shartlarni olishi zarur.

Texnik shartlari mavjud bo'lmagan holda yoki muddati o'tgan holda, «Ta'minotchi» tomonidan suv uzatish xizmatlarini yakunlashga asos bo'ladi.

6.5. «Iste'molchi» ichimlik va oqova suvni tarmoqlariga ulanish sanasi haqidagi hujjatlarni taqdim etmagan holatlarda «Ta'minotchi» tomonidan xokim qarori va kadastr hujjatlari hamda shu kabilar asosida hujjat bilan tasdiqlangan ulanish sanasi bo'yicha hisob-kitob qilishga haqlidir.

6.6. Ishlatilgan ichimlik suvi va qabul qilingan oqova suv uchun to'lovlar «Ta'minotchi» tomonidan taqdim etiladigan to'lov talabnomalari asosida ularga xizmat qiluvchi banklar orqali amalga oshiriladi. Bu to'lovlar «Iste'molchi» tomonidan 3 kunlik muddat ichida akseptsiz tartibda amalga oshiriladi. To'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda «Ta'minotchi» kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun 0,4 foiz penya yozadi va uning umumiy qiymati asosiy to'lovning 50%dan oshmasligi lozim.

6.7. Oqova tizimiga ruxsat etilmagan yomg'ir va erkin qor suvlari oqizilayotgan, ishlab chiqarish oqova suvlarini «Iste'molchi»lar tomonidan tashlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevral kuni qabul qilingan 11 sonli qarori bilan tasdiqlangan «Ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish qoidalari» hamda ifloslantiruvchi moddalarning O'zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining oqova tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun «Iste'molchi»larga belgilangan tarifga nisbatan 3 (uch) barobar ortiriluvchi koeffitsient miqdor tartibida hisoblanadi.

6.8. Oqova suvni chiqarib yuborishning hajmi va tarkibi bo'yicha me'yorlar bilan belgilangan oqizishning yo'l qo'yiladigan cheklangan miqdoridan ortiqcha oqova suvlar va ifloslantiruvchi moddalarning chiqarish taqilganadi.

6.9. Ifloslantiruvchi moddalarni normativdan ortiqcha oqizganlik uchun kompensatsiya to'lovlarini hisoblab yozish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 11 oktabrdagi «Tabiatni muhofaza qilishni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 820-son qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

6.10. Ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish qoidalari hamda ifloslantiruvchi moddalarning O'zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining oqova tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun kompensatsiya to'lovlarini hisoblash tartibi asosida amalga oshiriladi, debitor qarzdorlik to'lanmagan taqdirda «Iste'molchi» oqova tarmoqlaridan uzib qo'yiladi.

6.11. Hisob-kitobning noto'g'ri qilinganligi (tariflarning noto'g'ri hisobiga olinganligi va shu kabi holatlar) to'g'risida «Iste'molchi» yoziladigan e'tiroznoma to'lov hujjati olingandan keyin 5 kun muddatda «Ta'minotchi»ga taqdim etilishi kerak. E'tiroznoma «Iste'molchi»ni to'lov talabnomasi va xujjatida ko'rsatilgan summami to'liq va belgilangan muddatda to'lashdan ozod qilmaydi.

VII. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Taraflar o'rtasida shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar, kelishuv yo'li bilan hal qilinadi. Agarda ikki tomonlama kelishuvga erishilmasa, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yuridik «Iste'molchi» davlat ro'yxatidan o'tgan sud organlarida ko'rib chiqiladi.

7.2. Ushbu shartnomada belgilangan holatlar yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda Qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

a) «Iste'molchi»ga tegishli va uning tasarrufida bo'lgan ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilma va inshootlarning texnik holati qomqariz bo'lganda va «Ta'minotch» tashkiloti vakillari tomonidan aniqlangan texnik foydalanishdagi xatoliklarni bartaraf etish bo'yicha «Ta'minotch» tashkiloti talablari iste'molchi tomonidan bajarilmaganda;

b) «Ta'minotch» tashkiloti mansabdor shaxsi iste'molchining suvni hisobga olish usuli, ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilmalari va inshootlarini nazorat qilish hamda suvni hisobga olish pribori ko'rsatkichlarini qayd etish, plombalarni o'rnatish maqsadida ko'zdan kechirish, belgilangan limitdan ko'p sarf qilganda suv berrishni muvofiqdastirish va «Ta'minotch» tashkiloti naryadlari bo'yicha boshqa ishlarni bajarish uchun kelganda iste'molchi tomonidan assosiz ravishda kiritilmaganda;

v) «Ta'minotch» tashkiloti tomonidan iste'molchi ulangan ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilmalarida rejali-ogohlantirish tarzida ta'mirlash hamda xizmat ko'rsatish ishlari o'tkazilganda, shuningdek, yangi iste'molchilarni ulash ishlari amalga oshirilganda;

g) «Iste'molchi» tasarrufida bo'lgan ichimlik va oqova suv tizimlari yoki tarmoqlariga subabonentlarning o'zbohimchalik bilan ulangani aniqlanganda;

d) «Iste'molchi» tomonidan ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun belgilangan muddatlarda haq to'lanmaganda;

ye) «Iste'molchi»ning tasarrufida bo'lgan ichimlik va oqova suv tarmoqlariga, qurilmalariga «Ta'minotch» tashkilotidan ulanish uchun belgilangan tartibda ruxsatnoma olgan subabonentlarning tegishli tartibda ulanishi rad etilganda;

yo) «Iste'molchi» tomonidan shartnoma shartlari bajarilmaganda va u oqizilayotgan oqova suvlar miqdori va tarkibi bo'yicha shartlarga rioya qilmaganda.

3.3.2. «Ta'minotch» tashkiloti quyidagi holatlarda oldindan xabar qilmasdan suv uzatishni to'liq yoki qisman to'xtatishga haqli:

a) «Ta'minotch» tashkilotining elektr ta'minoti to'xtatilganda;

b) Tabiiy ofatlar ro'y berganda;

v) Avariya holatlarida;

g) Yong'in chiqqan joylarga suv uzatishni ko'paytirishga zarurat tug'ilganda.

3.4. «Ta'minotch»ning majburiyatlari:

3.4.1. Suv ta'minoti va oqova suvni chiqarib yuborish yuzasidan shartnoma shartlarini bajarish;

3.4.2. Ichimlik va oqova suv tarmoqlarining texnik holatini muntazam ravishda nazorat qilib borish;

3.4.3. Tarmoqdagi ichimlik suv sifati monitoringini olib borish;

3.4.4. Iste'molchilarning ichimlik va oqova suv tizimlariga ulangan ichimlik suv va oqova tarmoqlari, inshootlari hamda qurilmalarining holatini va ulardan foydalanilishini muntazam ravishda nazorat qilib borish, ulardan samarali foydalanishni tashkil qilishda iste'molchilarga analiy yordam ko'rsatish;

3.4.5. Iste'molchilar tomonidan suvni behuda sarfining olidini olish, samnat korxonalari va ularga tenglashtirilgan korxonalarda suv berrish bo'yicha belgilangan limitlarga rioya qilinayotganini muntazam ravishda nazorat qilish;

3.4.6. Suv iste'moli belgilangan me'yor (limit)lardan ortib ketgan holatlarda «Ta'minotch» tashkilotlariga belgilangan tarflarga nisbatan o'rtiriluvchi 10,0 koefitsiyentni qo'llash;

3.4.7. Oqova suv tizimiga oqizilayotgan oqovalarning sifati monitoringini ta'minlash;

3.4.8. Shartnoma shartlariga muvofiq o'z majburiyatlarini bajara olmagan holatlarda iste'molchiga penya hisoblash;

3.4.9. Iste'molchilarning shartnoma shartlariga rioya etishmagani masalasi bo'yicha sud organlariga murojaat qilish;

3.4.10. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarning yo'qiligi haqidagi ma'lumotlarni iste'molchilarga bepul taqdim etish;

3.4.11. Ichimlik va oqova suv xizmatlari tariflaridagi o'zgarishlar haqida ular amalda joriy qilinishidan 15 kun avval ommaviy axborot vositalari yordamida iste'molchilarni xabardor qilish;

3.4.12. Ichimlik va oqova suv xizmatlarini ko'rsatishda ro'y berrishni mumkin bo'lgan rejali to'xtatish va uzilishlar haqida iste'molchilar uzilishlar boshlangungacha 10 ish kunidan kechikmay ogohlantirish.

IV. Tarafdarning javobgarligi

4.1. «Ta'minotch» ushbu shartnomaga muvofiq majburiyatlarini bajarmaslikda yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda kelib chiqqan zararni, «Iste'molchi» esa yetkazilgan haqiqiy zarar o'rinni qoplashi shart.

4.2. «Iste'molchi» quyidagilar uchun javobgardir:

a) Ichimlik suvni hisobga olish pribori plombalari butilgi, aylanish chizig'i jo'rtiragi, gidrant va boshqa suv uzatish moslamalaridagi qismlarining hududidi va tasarrufida bo'lgan plombalangan hisoblash qurilmalarining butun saqlanishi uchun;

b) Suv tarmoqlariga o'z boshincha ulanib olish, sovuq suvni hisobga olish qurilmalarining qasdandan buzilishiga yo'l qo'yish hamda suv hisoblash priborlaridagi ko'rsatkichlarni tashqardan aralashgan holatlari uchun;

v) O'zbohimchalik bilan qurilgan inshootlar sababli tarmoqlardagi avariyaalar bo'lgan holatlarda;

g) Drenaj tizimi mavjud bo'lsa «Iste'molchi» hududida joylashgan oqova tarmog'iga yong'in va erigan qor suvlarining tushishiga yo'l qo'yimaslik. Ushbu qoidabuzarlik aniqlanganda «Ta'minotch» o'rnatilgan tartibda dalolatnoma tuzadi va ushbu dalolatnoma «Iste'molchi»ning mas'uliyat va javobgarlik chorasini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

d) Qonunchilikda o'rnatilgan boshqa hollarda.

4.3. «Ta'minotch» quyidagi hollarda javobgardir:

a) Amldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarining talablarga muvofiq va qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa hollarda;

b) «Iste'molchi»larga ichimlik va oqova suv xizmatlaridan foydalanish uchun zarur bo'lgan texnik shartlarni o'z vaqtida va ishonchli taqdim qilinishi uchun;

v) «Iste'molchi»ning hayoti, salomatligi va mol-mulkiga yetkazilgan zarar, ma'naviy zarar uchun qonunchilikda o'rnatilgan tartib va miqdorda qoplash;

g) Shartnoma shartlari va yuklatilgan majburiyatlarini bajarmaslik.

V. Suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun hisoblar va to'lovlarning tartibi

5.1. Ichimlik va oqova suv ta'minoti tizimidan chiqarilgan (qabul qilingan) suvning hisobi hisoblash pribori mavjud bo'lganda, hisobga olish priborining ko'rsatkichlariga muvofiq amaldagi tariflar bo'yicha QOSni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

5.2. «Iste'molchi» ichimlik va oqova suv xizmati uchun hisobga olish priborlari mavjud bo'lganda oxirgi uch oyning o'rtacha sarfi bo'yicha keyingi oy uchun har oyning 10-sanasiga qadar 100 foiz oldindan haq to'lashni amalga oshirishlari lozim.

5.3. To'lovning shartnomada belgilangandan kechiktirilgan har bir kuni uchun iste'molchi 0,4 foiz penya to'laydi. Ammo bu ko'rsatkich jami kechiktirilgan summamning 50 foizidan oshmasligi lozim.

5.4. «Iste'molchi» keyingi oy uchun har oyning 10-sanasiga qadar 100 foiz oldindan haq to'lovlarni amalga oshirmasalar, iste'molchilarni yozma ravishda xabardor qilgan paytdan boshlab besh ish kuni o'lgandan keyin qarzlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iste'molchilarni ichimlik suv ta'minoti va suv chiqarish xizmati tarmoqlaridan uzib qo'yish yo'li bilan undirish choralarini ko'radi. Bunday holatlarda yong'indan saqlanish va santariya holatlari uchun javobgarlik to'liq «Iste'molchi» zimmasiga yuklatiladi. Suv ta'minoti va oqova suv chiqarish tizimidan ilgari uzib qo'yilgan hollarda qayta ulashda «Iste'molchi»dan bazaviy hisoblash miqdorining 10 (o'n) barobari miqdorida to'lov qayta ulashni amalga oshirgan tashkilot hisobga mablag'larni o'tkazish orqali undiriladi;

5.5. Ogova tizimiga kelib tushuvchi ogova suvining miqdori, ichimlik suv tarmog'idan yetkazib beriladigan ichimlik suv miqdoriga teng. Markazlashgan issiq suv ta'minoti mavjud bo'lgan hollarda, iste'mol qilinuvchi ichimlik suv miqdoriga ogova suv tarmoqlari xisobi uchun 2,0 ko'effitsiyenti qo'llaniladi. «Iste'molchi»ning o'zida suv ta'minotining qurilmalari mavjud bo'lsa, ogova suvlarining miqdori ushbu suv qurilmalariga mahsulotligiga o'rnatilgan va ro'yxatga olingan hisoblash priborlarining ko'rsatkichlariga) ko'paytiriladi. Ichki suv ta'minoti tizimi «Iste'molchi»ning shaxsiy avtonom manbasi bilan bog'liq bo'lmaydi.

5.6. Ob'ekt egasi avtonom suv ta'minoti (quduq, ochiq suv olish havzasi, irrigatsiya tizimi)ga va (yoki) markaziy ogova tizimidan boshqa ogova tashlash manbalariga ega bo'lgan hollarda «Ta'minotchi» tashkiloti bilan shartnoma tuzish uchun maxsus tabiiy suv ob'ektlardan maxsus suv olish yoki iste'mol qilish uchun ruxsatnomani qo'shimcha ravishda taqdim etishi zarur.

5.7. Suv ta'minotining xususiy avtonom manbai (arteziyan skvajinasi, quduq, ochiq suv havzasi, irrigatsiya tizimi va boshqalar) mavjud bo'lganda ogova tizimiga ogova suvlarni oqizish uchun to'lovlar o'rnatilgan nasosning ishlab chiqarish quvvati yoki o'rnatilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan hisoblash priborining ko'rsatkichlari asosida amalga oshiriladi. «Iste'molchi»ga qarashli bo'lgan avtonom suv ta'minoti manbaining ichki tizimi markaziy suv ta'minoti tizimi bilan tutashmagan bo'lishi shart.

VI. Aloxida shartlar

6.1. Ob'ekt egasi o'zgariganda iste'molchi chiqib ketishidan 7 kun avval mavjud qarzlarni to'lab, bu haqda «Ta'minotchi» tashkiloti bilan dalolatnoma imzolashi shart. «Iste'molchi» chiqib ketgach suvni hisobga olish pribori, plombalarning butligi va qoplamagan debitor qarzdorlik uchun javobgarlik ob'ekting yangi egasi zimmasiga yuklanadi.

6.2. Yetkazib berilgan yoki qabul qilingan ichimlik suvi xajmi quyurining o'tkazish qobiliyatidan kelib chiqib o'yning kalendari kunlari hisobidan quyidagi formula asosida hisoblanadi: bunda: M-0,60 ga teng bo'lgan zullim orqali suv sarfi ko'effitsiyenti; F-suyuqlik oqib o'tadigan quvur yoki teslik kesimi maydoni (tekhi diameter bo'yicha) m²; g-9,81 m/sek ga teng bo'lgan ekin tushish tezligi; N-suvning me'laridagi bosimi; t-vaqt-24 soat, sekundlarda. Quyidagi holatlarda yuqoridagi formula asosida hisoblanadi:

6.2.1. «Iste'molchi»da suv o'Ichash pribori va moslamalari yo'q bo'lgan hollarlarda (yoki nosoz xolatda);

6.2.2. Suv o'Ichash pribori yoki moslamasi «Ta'minotchi»da ro'yxatdan o'timgan taqdirda;

6.2.3. Ichimlik suvi bilan o'zbo'shimchalik bilan foydalanganda;

6.2.4. Suv o'Ichash pribori, moslamasi ishdan chiqqan, singan, buzilgan holatda, sarflangan suv hajmi so'nggi tuzilgan dalolatnoma muddatidan yangi suv o'Ichash pribori o'rnatilgan (ro'yhatdan o'tkazilgan) kungacha hisoblanadi;

6.2.5. «Ta'minotchi»ning suv o'Ichash bo'g'ini diametri kichikroq bo'lgan moslamaga almashirish to'g'risidagi talabnomasi qondirilmagan va bajarilmagan holatlarda;

6.2.6. Suv o'Ichash priborining hisob-kitobini olib borish bo'g'indagi qo'yilgan himoya qoplamiga (plombaga) ruxsatsiz tegilish natijasida, ichimlik suv sarfini aniqlash imkoniyati chegaralanganida;

6.3. Ichimlik va ogova suv tizimlariga (jumladan yong'indan saqlanish gidrant va quvurlariga) o'zbo'shimchalik bilan ulanib olingan va foydalanilgan holatlar aniqlanganda «Ta'minotchi» tomonidan dalolatnoma tuziladi va shu tuzilgan dalolatnoma o'zbo'shimchalik bilan ulanib olgan shaxsning javobgarligi darajasini aniqlash va «Ta'minotchi»ga yetkazilgan zararni hisoblash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda: - to'lov muddati, eng so'nggi tuzilgan dalolatnoma sanasidan o'zbo'shimchalik bilan ulanib olingan kun sanasigacha yoki yangi suv o'Ichash pribori o'rnatilib, ro'yhatdan o'tkazilgan kungacha yoki o'zbo'shimchalik bilan ulanish uzib tashlangan kungacha qadar hisobga olinadi;

b) ogova xizmati uchun — «Iste'molchi» ogova tizimining ichki qismi hisoblanuvchi, magistrall ogova tarmog'iga ulanish nuqtasidagi chiqaruv qudug'i. Agar chiqaruvchi ogova qudug'i (kamerasi) magistrall ogova tarmog'ida joylashgan bo'lsa, ushbu quduq «Ta'minotchi» tashkiloti ogova tarmog'ining bir qismi hisoblanib, unga tutashiruvchi foydalanish chizig'i esa «Iste'molchi»ning mablag'larini hisobidan amalga oshiriladi.

III. Taraflarning huquq va majburiyatlari

3.1. «Iste'molchi» ning huquqlari:

3.1.1. Tegishli sifat darajasidagi ichimlik suv va ogova suv tarmoqlariga xizmat ko'rsatish talablarini bajarmaganligi uchun «Ta'minotchi» tashkilotidan qonunchilikda va shartnoma shartlarida ko'rsatilgan miqdordagi jarima (penya) lar to'lashni talab qilish;

3.1.2. «Ta'minotchi» tashkilotini shartnomani bekor qilish to'g'risida, uning bekor qilinishidan kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda va ushbu muddatda suv ta'minoti yoki ogova suvni chiqarish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni to'liq amalga oshirgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

3.1.3. Ichimlik va ogova suv xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotnomani shaxsan yoki o'z vakili orqali bepul olish;

3.1.4. «Ta'minotchi» tashkilotidan ichimlik va ogova suv xizmatlari hajmi va sifati, ularni amalga oshirish shartlari, to'lovlar tarifi va tartiblarining o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni bepul olish;

3.1.5. Ichimlik va ogova suv xizmatlari ko'rsatilmayotganligi yoki ularning past sifarda ekanligi to'g'risidagi dalolatnoma taqdim etilgandan keyin 18 soat mobaynida «Ta'minotchi» tashkilotidan nosozlik va kamchiliklarni barataraf etish bo'yicha ma'lumotlarni olish;

3.2. «Iste'molchi» ning majburiyatlari:

3.2.1. Ogova tarmog'ida avariya bo'lgan taqdirda yerto'la xonalarni suv bosisidan saqlaydigan barcha o'chiruvchi qurilmalarning but saqlanganligi, ishga yararoqligi va normal texnik holatda bo'lishini ta'minlash;

3.2.2. Iste'molchiga qarashli sanitariya asboblari, ogova tarmoqlari, inshoot va qurilmalarda tashkilotning yo'qligi, reviziyalarning zich yopilmashligi, nosoz texnik holati tufayli iste'molchining ogova tarmoqlarida yoki «Ta'minotchi» tashkilotida, ichimlik suv va ogovaning tashqi tarmoqlarida avariya (tirqilib qolish, suv bosisi) sodir bo'lishi sababli yerto'la xonalarni suv bosisi oqibatida yetkazilgan zararni qoplashi;

3.2.3. «Ta'minotchi» tashkiloti bilan hisob-kitob qilish uchun foydalaniladigan suvni hisobga olish pribori, aylamma linnya zullfini, yong'in zullfinlari, gidrantlar va uning hududida yoki tasarrufida bo'lgan hamda «Ta'minotchi» tashkiloti tomonidan plombalangan boshqa ichimlik suv qurilmalaridagi plombalarning butligi va saqlash;

3.2.4. «Ta'minotchi» tashkilotiga ichimlik va ogova suv tarmoqlari, inshootlari va qurilmalarning shikastlanishi tufayli yetkazilgan zarar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlik;

3.2.5. Ichimlik suvi ta'minotining yong'inga qarshi tizimidan foydalanish to'xtatilganda «Iste'molchi» 24 soat mobaynida «Ta'minotchi» tashkilotiga plomba uzilgani to'g'risida dalolatnoma taqdim etishi va zullfinlarni plombalash uchun «Ta'minotchi» tashkiloti vakilini chaqirishi;

3.2.6. «Ta'minotchi» bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq majburiyatlariga rioya qilish, har o'yning 23 dan 25 gacha sanasida ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va aniq yechib olish hamda ushbu ko'rsatkichlarni «Ta'minotchi»ga kechikmagan holda taqdim qilish va to'lovni amalga oshirish.

3.3. «Ta'minotchi» ning huquqlari:

3.3.1. «Ta'minotchi» tashkiloti, iste'molchini 7 kun avval yozma ravishda ogohlantirgan holda, quyidagi holatlarda suvni uzatish va ogova suvlarni qabul qilishni to'liq va qisman to'xtatishi mumkin: